

**22-23.04.2024**

**<https://phoenixpublication.uz/>**

**INVESTITION MUHIT JOZIBADORLIGI MINTAQA IQTISODIY  
RIVOJLANISHINING ASOSIY OMILI**

**Norova S. Yu.**

*Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, PHD, dotsent,*

*e-mail: norova-s@mail.ru*

**Xalilova Madinabonu**

*M 51-23 MNTguruh magistranti.*

**ПРИВЛЕКАТЕЛЬНОСТЬ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ – ГЛАВНЫЙ  
ФАКТОР ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ РЕГИОНА**

**Норова С.Ю.**

*Бухарский инженерно-технологический институт, Узбекистан*

*PhD, e-mail: norova-s@mail.ru*

**Халилова Мадинабону**

*Магистр группы М 51-23MNT.*

**ATTRACTIVENESS OF THE INVESTMENT ENVIRONMENT IS THE MAIN  
FACTOR OF REGIONAL ECONOMIC DEVELOPMENT**

**S.Yu.Norova.**

*Bukhara engineering technological institute*

*PhD, e-mail: norova-s@mail.ru*

**Khalilova Madinabonu**

*Master of group M 51-23MNT*

Bugungi zamonaviy sharoitlarda mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish, hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish hamda pirovardida esa aholi turmush farovonligini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida hududlarni iqtisodiy rivojlantirishda investitsiyalarni faol jalb etish, investitsion muhit jozibadorligini oshirish ob'ektiv ahamiyat kasb etib bormoqda.

O'zbekistonda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etishni rag'batlantirish, investorlarning investitsion siyosat izchilligiga ishonchini mustahkamlash va davlat tuzilmalarining investorlar bilan ishlashdagi mas'uliyatini oshirish, investitsion faollikni ta'minlash orqali milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Mintaqada investitsion faoliyatni takomillashtirish hamda faol investitsiyalar hajmini oshirishda hududning investitsion jozibadorligini oshirish hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH. Mirziyoyev ta'biri bilan aytganda:

22-23.04.2024

<https://phoenixpublication.uz/>

"Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaysi davlat faol investitsiya siyosatini yuritgan bo'lsa, o'z iqtisodiyotining barqaror o'sishiga erishgan. Shu sababli ham investitsiya - bu iqtisodiyot drayveri, o'zbekcha aytganda, iqtisodiyotning yuragi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Investitsiya bilan birga turli soha va tarmoqlarga, hududlarga yangi texnologiyalar, ilg'or tajribalar, yuksak malakali mutaxassislar kirib keladi, tadbirkorlik jadal rivojlanadi". [1]

Ta'kidlash joizki, mamlakatda to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalarni jalb etish uchun eng qulay investitsiya muhitini shakllantirish maqsadida iqtisodiyotni liberallashtirish, davlat boshqaruvini [2] isloh qilish, tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga aralashuvni cheklash, litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomillarini qisqartirish va soddalashtirish, tovarlar (ishlar va xizmatlar)dan erkin foydalanishni ta'minlash, shuningdek, hududlarda zarur infratuzilmani yaratish, samarador biznesni yuritishga qaratilgan imtiyoz va preferentsiyalar taqdim etilishi, institutsional sharoitlarning yaratilgani, yalpi hududiy mahsulotning o'sishiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar oqimining ortishi hamda hududlarning investitsion muhit [3] jozibadorligini oshirish bilan bog'liq' tadbirlar, yangi ish o'rinlarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholi daromadlarini oshirish borasida keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Xorijiy investitsiyalarni jalb etish orqali sanoatni, yangi zamonaviy texnologiyalar bilan qishloq xo'jaligida qayta ishlovchi sanoat majmuini va boshqa sohalarida tub o'zgarishlar yasash mumkin. Shunday ijobiy ishlarni amalga oshirish uchun xorijiy investorlarga qulay bo'lgan investitsion muhitni yaratib berish kerak.[4]

Har bir mamlakatga investitsiyalarning kirib kelishi hamda rivojlanib borishi mazkur mamlakatdagi investitsion muhitga ta'sir ko'rsatuvchi omillarga bevosita bog'liq bo'lib hisoblanadi. [5]. Erkin va samarali tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish, tovar va xizmatlar, kapital, mehnat bozori ishtirokchisiga aylanish, mamlakatni yagona jahon iqtisodiyotiga birlashtirish uchun universal iqtisodiy, sarmoyaviy, huquqiy, axborot va madaniy muhitni yaratish dolzarb masaladir. [6]

Mintakalar iqtisodiy tarqqiyotida asosiy kapitalga [7] kiritilgan investitsiyalarning ahamiyatini ham alohida ta'kidlash lozim. Buni quyidagilar bilan izoxlash mumkin: birinchidan, asosiy kapitalga kiritiladigan investitsiyalar ko'lamining o'sishi yuqori texnologik taraqqiyot va intensiv iqtisodiy o'sishning omili sifatida YaHMning o'sishiga ijobiy ta'sir etadi.

Ikkinchidan, tarkibiy islohotlarni amalga oshirish, mahalliyashtirish, pirovardida import o'rnini bosuvchi va eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarilishi ta'minlanadi;

Uchinchidan, mavjud moliyaviy-investitsion salohiyatdan oqilona foydalanish tadbirkorlik faoliyatini keng rivojlanishiga va pirovard natijada yangi ish o'rinlarini yaratish orqali aholining turmush farovonligini oshiradi. Bu esa o'z navbatida aholining pul daromadlarining izchil ortishi hisobiga iqtisodiyotdagi yalpi talabning kengayishi ishlab chiqarishni yanada rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratadi. [8]

**22-23.04.2024**

**<https://phoenixpublication.uz/>**

Investitsion muhit muayyanligini bu borada faoliyatning maqsadga muvofiqligi va jozibadorligini aniqlaydigan iqtisodiy, ijtimoiy, tashkiliy, xuquqiy, siyosiy va boshqa shart-sharoitlarni umumlashtiruvchi xususiyatlari belgilab beradi. Investitsiya faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi bu omillarning o'zaro bog'liq majmui u yoki bu mamlakat iqtisodiyotidagi hal qiluvchi investitsion muhit hisoblanadi [9].

Fikrimizcha, mamlakatda qulay investitsion muhitni shakllantirish hamda hududning investitsion jozibadorligini oshirish [10] mamlakatda makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda muhim ahamiyatga ega. Qulay investitsion muhitni shakllantirish va investitsion muhit jozibadorligini oshirishga ta'sir etuvchi bir qancha omillar mavjud. [11]

Mamlakatda investitsion muhit jozibadorligini oshirishda innovatsion hamda axborot texnologiyalari sohasidagi tadqiqot markazlarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek texnopark va innovatsion klasterlarni tashkil etishni ko'paytirish qolaversa investitsion jarayonlar infratuzilmalarini rivojlantirish uchun davlat-xususiy sherikchilik institutini takomillashtirish birinchi navbatdagi vazifalardan hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 14 майдаги “Ўзбекистон Республикасида инвестиция муҳитини тубдан яхшилаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5717-сон Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2018 йил 28 декабрь.
3. Норова С.Ю. Худудларни ижтимоий иқтисодий ривожлантиришда инвестицион муҳит жозибадорлигини ошириш масалалари. “Бизнес эксперт” журнал. 2023, 9-сон.37-40 б.
4. Губанова Е.С. Инвестиционная деятельность в регионе. – Вологда: ВнКЦ ЦЭМИ РАН. 2002. 137-б.
5. Мустафакулов Ш. Инвестицион фаолият, салоҳият ва жозибадорлик. Бозор, пул ва кредит Илмий-амалий ойлик журнал. 4/2017, апрель (239), 10-19 б.
6. Musaeva J. K., Khalilova M. A. FEATURES OF INVESTMENT PROCESSES OF THE DEVELOPMENT OF THE ECONOMY OF UZBEKISTAN IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION //Academia Science Repository. – 2023. – Т. 4. – №. 04. – С. 618-628. <https://wos.academiascience.org/index.php/wos/article/view/3763/3615> DOI: <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/BGTE7>
7. Мусаева Ж. К., Халилова М. А. Қ. КОРХОНАЛАРНИНГ АСОСИЙ КАПИТАЛИНИ БАҲОЛАШ ВА УЛАРДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2022. – Т. 2. – №. 4. – С. 200-217.
8. Мусаева Ж. К., Халилова М. А. РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА //ББК 65.0501 А 43. – 2022. – С. 283.

**22-23.04.2024**

**<https://phoenixpublication.uz/>**

9. Мусаева Ж. К. РОЛЬ ИНВЕСТИЦИЙ В ЭКОНОМИКЕ УЗБЕКИСТАНА //Интернаука. – 2019. – №. 9-1. – С. 76-78.
10. Мусаева Ж. К., Халилова М. А. РОЛЬ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ В УСТОЙЧИВОМ РАЗВИТИИ ОБЩЕСТВА //ББК 65.0501 А 43. – 2022. – С. 283.
11. Мусаева Ж. К., Халилова М. А., Мусаева А. К. СОВРЕМЕННЫЙ МЕХАНИЗМ СТИМУЛИРОВАНИЯ КАЧЕСТВА НА ПРЕДПРИЯТИЯХ РЕАЛЬНОГО СЕКТОРА ЭКОНОМИКИ //Вопросы экономических наук. – 2015. – №. 1. – С. 17-18.